

MAQOL VA TOPISHMOQLARDA MA'DANIY NUTQ TARBIYASI (O'ZBEK VA TOJIK TILI MISOLIDA)

Qodirjon Mo'ydinov,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

gumanitar fanlar fakulteti,

o'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari

bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Salomat Rustamova,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada o'zbek va tojik adabiyoti xalq og'zaki ijodi maqol va topishmoqlarda madaniy nutq tarbiyasi qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, maqol va topshmoqlar.

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ узбекской и таджикской литературы, фольклора, пословиц и загадок, культурного речевого образования.

Ключевые слова: культура речи, пословицы и загадки.

Abstract: The article provides a comparative analysis of the upbringing of cultural speech in Proverbs and riddles of folk oral creativity of Uzbek and Tajik literature.

Key words: speech culture, proverbs and riddles.

Maqol o'zbek tilida maqol, tojiklarda zarbulmasal, ruslarda poslovitsa, arablarda (jonli so'zlashuvda) naql, turklarda ata so'zi atamasi bilan yuritiladi. Maqol atamsi arabcha [لوق] – qavlun – gapirmoq, aytmoq so'zidan olingan. Maqollarda so'z qimmatini alohida yorqin ifodalanadi. Chunki maqollardagi so'zlarni boshqasi bilan almashtirish, biron so'z qo'shish mumkin emas. Ular

milliy til tarkibida qoliplashgan holda namoyon bo‘ladi. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar og‘zaki ijodida bor bo‘lib, hajm, shakl, yaratilishi maqsadiga ko‘ra mushtarak hisoblanadi. Hatto nomlanishida ham yaqinlik aniq seziladi. Jumladan, arablarda “qavlun” – gap, so‘z ma’nosini ifodalasa, tojiklarning “zarbulmasal” atamalarida misol keltirish, ruslar “poslovitsa”sida so‘zlar bilan fikrni ifodalash, turklardagi “ota so‘zi”da esa ajdodlar fikrini eslash ma’nosi yetakchi. Maqollar fikrni ta’sirchan, bo‘yoqdor qilib ifodalovchi qudratli vositadir. Nutqda maqollardan o‘rinli foydalanish so‘zlovchining mahorati sanaladi.¹ Dono xalqimiz bejizga: “So‘z ko‘rki - maqol” deb aytmagan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham, tojik xalq og‘zaki ijodida ham bu ikki xalq ma’naviyati, tarixi va qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan namunalardan biri bu xalq maqollaridir. Dunyodagi hamma xalqlar og‘zaki ijodida maqollarchalik shaklan va mazmunan o‘zaro yaqin janr deyarli yo‘q. Folklorshunos olimlar maqollar va matallarni o‘rganuvchi sohani paremiologiya deb atashadi. Paremiya-yunoncha paroimia-masal, ramzli hikoya. Ma’lum bir tildagi avloddan avlodga og‘zaki shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan turg‘un ibora; maqol, matal.² Xalqimizda o‘z qadrini bilgan so‘z qadrini biladi degan gap bor. O‘z qadrini bilgan odam so‘zni pala-partish ishlatmaydi, uning asl ma’nosini qidiradi, bilib o‘rniga qo‘yib gapiradi. Chunki, maqol-so‘z ko‘rki hisoblanadi. Xalq maqollarida ota - bobolarimiz so‘zlash odobiga rioya qilish haqidagi o‘gitlarini, pand-nasihatlarini bayon etganlar.

Maqol – mantiqiy mushohada namunasi, odob va axloq qoidalarini jamuljam etgan dono gap.³

Maqollar ta’lim-tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega. U kishilarni ogohlantiradi (“Tez so‘zlagan tez pushaymon bo‘lar”), maslahat beradi (“O‘ynab gapirsang ham o‘ylab gapir”), tanbeh berib, tanqid qiladi (“Gapning qisqasi yaxshi, Qisqasidan–hissasi.”) va boshqalar.

Yaxshi soʻzlash, shirin gapirish haqida ham bir qancha maqollar yuzaga kelgan:

Anjom-uy ziynati,
Soʻz–inson ziynati.

Bugʻdoy noning boʻlmasin,
Bugʻdoy soʻzing boʻlsin.¹

Shuningdek, xalqimiz doʻsting ham til, dushmaning ham til deb oʻqtiradi. Koʻpchilik odamlar orasida pichirlab gapirmaslik haqida “Gapning yomoni- pichir” deb aytilsa, yomon soʻzning dilni jarohatlashi haqida “Tayoq etdan oʻtar, soʻz suyakdan” deb gapiriladi. Jamiyat aʼzolari oʻzaro munosabatlarda soʻzlashish odobiga qatʼiy rioya qilishlari zarurligi taʼkidlanadi. Kishi aytadigan har bir gapini oʻylab olishi, soʻng soʻzlashi lozim. Oʻylamay aytilgan soʻz kishini koʻpchilik orasida oʻyalib qolishiga, hatto fojiali ahvolga tushishiga sabab boʻlishi mumkin. Bu haqda shunday maqollar mavjud:

Dilda pishir, tilda gapir.

Ogʻizga kelgan soʻz arzon, ovulga kelgan boʻz arzon.

Oʻylanmagan joydan tulki chiqar,

Oʻylanmagan soʻzdan kulki chiqar.

Til odobiga bagʻishlangan maqollar xalqimiz tomonidan juda koʻplab yaratilgan. Bu narsa xalqimizning soʻzlash odobiga naqadar masʼuliyat bilan yondashganligidan dalolat beradi. Badiiy tarjimada maqol, matal va idiomatik birliklarning oʻrni va ahamiyati xususida talaygina tadqiqotlar mavjud. Shu oʻrinda Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston tarjimashunoslik fanining asoschisi Gʻaybulloh as-Salom, tarjimashunoslardan R.Fayzullayeva, E.Normurodov, Gʻ.Mahmudov, N.Namozov, S.Jabborov va boshqalarning nomini alohida taʼkidlash mumkin. Bu tadqiqotchilar “rus –oʻzbek”, “oʻzbek- nemis” , “ingliz-oʻzbek”, “nemis-oʻzbek” tillari misolida tadqiqot ishlarini olib borgan. Lekin “oʻzbek - tojik” tillari misolida aytarli bir tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Maqollar milliy koloritni ifodalovchi muhim vositalardan hisoblanadi. Har qanday tildagi maqollarga aynan mos keladigan variantlar mavjud bo'lishi mumkin. Bu albatta, xalqlarning o'ziga xos universalligidan dalolat beradi. Masalan, o'zbek tilidagi "Til- aql bezagi" maqoliga tojik tilidagi "Забон ороиши ақл аст" maqollari to'g'ri keladi. Yoki bo'lmasa o'zbek tilidagi "Til- aql tarozusi" maqoliga tojik tilida "Забон тарозуи ақл аст" kabi o'xshash maqollar mavjud. Hattoki, ularning obrazli komponentlari ham aynan bir-biriga mos. O'zbek va tojik tillari turli oilalarga mansub bo'lsa-da, ularda bir-biriga mos bo'lgan ko'plab maqol, matallarni uchratishimiz mumkin. Asosan, ularning ichida til odobiga bag'ishlangan maqollar ahamiyatga molikdir. Masalan:

So'z va nutq haqidagi maqollardan namunalar:

O'zbek tilida	Tojik tilida
Haq so'zga o'lim yo'q.	Ба ростӣ марг нест.
Tilni bilish - dilni bilish	Донистани забон-донистани дил аст.
Notiq mahmadona bo'lsa, majlisining burdi ketar.	Агар суханвар сухангӯ набошад, маҷлис хуб намегузарад
Gapning tagini gap ochar.	Поёни чумла сӯхбатро мекушояд.
Gapni oz so'zla, ishni ko'p ko'zla	Камтар гап занед ва бештар кор кунед.

O'zbek tilida ham, tojik tilida ham maqollar ma'no jihatidan mardlik, do'stlik, haqiqatgo'ylik kabi ezgu fazilatlarni rag'batlovchi turlarga bo'linadi. Lekin til odobi, nutq odobiga bag'ishlangan maqollarni o'qir ekanmiz, bu ikki mushtarak xalq ham so'zlash odobiga naqadar mas'uliyat bilan yondashganligini guvohi bo'lamiz.

O'zbek xalqi tomonidan asrlar davomida yaratilgan og'zaki ijod namunalari, ayniqsa, o'zbek xalq maqollari boshqa tillarni o'rganishda katta ahamiyatga ega. Chunki boshqa tillarni o'rganishda biz nafaqat boshqa millat tilini, balki uning madaniyatini, san'ati va adabiyotini o'z tilimiz, madanyatimiz, urf-odatlarimiz bilan qiyoslab o'rganamiz. Yaxshi va yomon, adolat va zulm, minnatdorlik va noshukrlik,

mehmondo'stlik, kamtarlik, ta'lim va tarbiya, xulq-atvor, muhabbat va sadoqat, mardlik va jasorat, mehnatsevarlik, inson va insonparvarlik hamda boshqa juda ko'p tushunchalarni aks ettiruvchi maqollarni qiyoslab o'rganish til o'rganuvchining boshqa tilga bo'lgan qiziqishini orttirishi bilan bir qatorda uning umuminsoniy fazilatlarini ham shakllantirishga xizmat qiladi. Maqollar qay til yoki qay millatga tegishli bo'lmasin bari yaxshilikka chorlaydi. Maqolni o'qish uchun soniyalar kifoya, ammo amal qilish uchun yillar ozlik qiladi. O'zbek va tojik xalqlar og'zaki ijodining eng sevimli, qiziqarli turi topishmoq hisoblanadi. Bu xalqlar hamisha yoshlarning ziyrak, yaxshi xotirali, fikrlovchi inson bo'lishini istagan. Xalqimiz og'zaki ijodining kichik janrlaridan biri topishmoqlardir. Topishmoqlarni ba'zan «topmacha», «jumboq», «matal» deb atashgan. Bu janr ko'proq bolalarni kuzatuvchanlikka, hayotni mukammalroq bilishga, sinchkovlikka o'rgatadi. Ammo topishmoqlar folklorda faqat yosh bolalargagina taalluqli deb hisoblash to'g'ri emas, chunki topishmoq aytish va topish musobaqalarida kattalar ham qiziqish bilan ishtirok etaveradilar. Mumtoz adabiyotda ular «chiston» ham deyiladi. Topishmoq—hammabop ommaviy janr. Ularda xalqning turmush madaniyati, urf-odatlar, voqea-hodisalar, inson va uni o'rab olgan olam o'xshatishlar, taqqoslashlar, savollar vositasida ifodalanadi. Topishmoqlar nasriy va she'riy shaklda ixcham, sodda va ravon, qofiyali uslubda yaratiladi. «Chiston» asli forscha so'z bo'lib, topishmoq, jumboq ma'nosini anglatadi. Chiston mumtoz adabiyotning kichik lirik janri hisoblanib, savol-javob shaklida paydo bo'lgan. Undagi narsa-hodisalar ko'chma ma'noda tasvirlanib, fard, bayt, qit'a, ruboiy va g'azal shaklida yoziladi. Qisqacha topishmoqlarda xalq donishmandligi aks etadi. Ular o'ziga xos mazmunni ifodalash shakli bilan bolalarni ziyraklikka, kuzatuvchanlikka o'rgatadi, ularning qobiliyatlarini o'stiradi. O'zbek va tojik xalq og'zaki ijodida topishmoqlar juda ko'p bo'lib, ularda nutq odobi haqida yozilganlari ham mavjud. So'z va gap haqidagi topishmoqlarni o'qib so'zning qudrati buyuk ekanligiga yana bir bor amin bo'lamiz.

Masalan: quyidagi topishmoqda soʻzning qudrati asaldek shirin boʻlishi, yoki uning aksi zahardanda achchiq boʻlishi qiyoslab koʻrsatilgan:

Asaldan shirin,

Zahardan achchiq.(Soʻz)

Keyingi topishmoqda soʻzning qudrati kimlargadir xursandchilik baxsh etsa, kimlargadir gʻamginligiga sabab boʻladi. Chindan ham bir ogʻiz shirin soʻzingiz bilan birovni koʻnglini koʻtarish mumkin. Bir ogʻiz yomon gap bilan birovlarning dilini ogʻritish mumkin. Bu topishmoqda suydinsh va kuydirishga sabab boʻla oladigan narsa jumboq sifatida beriladi.

Nutq odobiga oid topishmoqlardan namunalar:

Birovni suydinsh,

Birovni kuydirar.(Soʻz,gap)

Ogʻzim ochdim, uchdi ketdi,

Samarqand Buxoro borib yetdi

(Soʻz,gap)

Ogʻzimdan tushib qoldi,

Har tomonga tarqaldi(Soʻz,gap)

Ogʻizdan chiqqancha meniki,

Ogʻizdan chiqqani elniki.

(Soʻz,gap)

Oʻt emas, kuydirar,

Pichoq emas, soʻydirar.(Soʻz)

Kim suyaldi,

Oʻsha uyaldi. (Yolgʻon soʻz)

Xulosa qilib aytamizki, maqol va topishmoqlar, tez aytishlar bolalarning fikr doirasini kengaytirishda, aql-idroklarini rivojlantirishda, kuzatuvchanlik hislarini, nafosat tuyg'ularini o'stirishda, nutq odobini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Ular o'ziga xos mazmunni va maqsadni ifodalash shakli bilan bolalarni ziyraklikka, kuzatuvchanlikka o'rgatadi ularning nutqiy va aqliy qobiliyatlarini o'stiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.Нурмонов, А.Собиров, Ш.Юсупова. Хозирги ўзбек адабий тили.- Тошкент: Шарқ, 2002. 109-бет.
 2. О'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti: Toshkent, 2020. 222-bet
 3. О'zbek xalq maqollari.- Toshkent: Sharq, 2019. 7-bet.
 4. О'zbek xalq maqollari.- Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2014. 132-bet
 5. T.Fuller., Kvintilian., M.Gorkiy fikrlari www.ziyouz.com/aforizmlar/1-bet
-